



## UZLUKSIZ TA'LIM RIVOJLANISHIDA MAK TABGACHA TA'LIMNING O'RNI

Abjalova Hilola Raxmat qizi

Termiz davlat universiteti

Maktabgacha ta'lim metodikasi

kafedrasi o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6417544>

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 15-mart 2022  
Ma'qullandi: 20-mart 2022  
Chop etildi: 25-mart 2022

### KALIT SO'ZLAR

rivojlanish, ta'lim,  
hamkorlik, milliy ta'lim.

### ANNOTATSIYA

*Mamlakatda ta'lim-tarbiya tizimining sifati va samaradorligini oshirish, maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilari zamonaviy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, ta'lim tizimi hamda ilm-fan sohasi o'rtasida yaqin hamkorlik va integratsiyani, ta'larning uzviyliги va uzluksizligini ta'minlash borasida tizimli ishlar haqida fikr yuritilgan.*

So'nggi yillarda mamlakatda ta'lim-tarbiya tizimining sifati va samaradorligini oshirish, maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilari zamonaviy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, ta'lim tizimi hamda ilm-fan sohasi o'rtasida yaqin hamkorlik va integratsiyani, ta'larning uzviyliги va uzluksizligini ta'minlash borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, milliy ta'lim-tarbiya tizimining amaldagi holati uni zamon talablari asosida modernizatsiya qilish, yoshlarni yuksak bilim-ma'rifat egalari, jismoniy va ma'nnaviy sog'lom insonlar etib tarbiyalash, ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog xodimlari nufuzini oshirish, ularning samarali faoliyat yuritishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish bo'yicha izchil chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab etmoqda.<sup>1</sup>

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsakbuyuk yunon olimi Aristotelning "Vatan taqdirini yoshlar tarbiyasi hal qiladi", degan so'zları bor.Qarang, bu fikrlar miloddan avval aytilgan. Demak, insoniyat ongli hayot kechira boshlagan davrdan buyon ta'lim va tarbiya masalasi, doimo dolzarb ahamiyat kasb etib kelmoqda. farzandlarimiz tarbiyasida eng asosiy bo'g'in hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimining jamiyatimiz hayotidagi o'rni va ahamiyatini hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydi. Aynan maktabgacha ta'lim sohasiga bo'lgan e'tibor mamlakatning ertangi taraqqiyoti uchun mustahkam zamin yaratadi.<sup>2</sup> Maktabgacha ta'lim bolalarni xalqning boy milliy madaniy-tarixiy merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida aqliy va ma'nnaviy axloqiy jihatdan tarbiyalash.Bolalarni milliy g'urur, vatanparvarlik hislarini shakllantirish,

<sup>1</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "IMamlakatimiz ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmon loyihasi 2020 y.1-b

<sup>2</sup>O'zbekiston respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning o'qituvchi va murabbiylarga yo'llagan bayram tabrigi 2020 y 1-oktyabr 3-b



mактабгача ўосдаги болаларнинг билим олиш етийојини, о'қишга интилишини шакллантирish, уларни мунтазам ravishda ta'lіm jarayoniga тайырлаш, болалар tafakurini rivojlantirishni ta'minlaydi. Shu tufayli yangi vazirlik tashkil etildi. Yangi vazirlik oldiga maktabgacha ta'lіm sohasida yagona davlat siyosatini ishlab va amalgalash oshirish maktabgacha ta'lіm muassasalarini davlat va nodavlat tarmog'ini kengaytirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, maktabgacha ta'lіm muassasalariga bolalarni qamrab olishni keskin oshirish, ta'lіm-tarbiya jarayonlariga zamonaviy ta'lіm dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish orqali bolalarni har tomonlama intellektual, ma'naviy-estetik, jismoniy rivojlantirish hamda ularni maktabga тайырлаш sifatini tubdan yaxshilash vazifalari qo'yildi.<sup>3</sup>

Bugungi kunda maktabgacha ta'lіm tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, yangi bog'chalar qurish bo'yicha davlat dasturi qabul qilinib, amalgalash oshirilmoxda. Rivojlangan davlatlar tajribasi hisobga olinib, nodavlat ta'lіm muassasalarini, jumladan, nodavlat bog'chalar tarmog'ini kengaytirishga ham katta ahamiyat qaratilmoqda. Bu esa tizimda sog'lom raqobatni шакллантирish hamda ta'lіm xizmatlari turini ko'paytirishga xizmat qiladi. Maktabgacha ta'lіm sohasiga ixtisoslashgan kadrlar tayyorlash masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Bu sohada zamonaviy talablarga javob beradigan ilg'or pedagogik usul va uslublarni ishlab chiqish, o'quv va o'quv metodik adabiyotlarning yangi avlodini

yaratish va nashr etish ham g'oyat dolzarb vazifadir. Maktabgacha ta'lіm tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha 2017-2021 yillarga mo'ljallangan dasturida belgilangan vazifalarni amalgalash oshirish chora-tadbirlari rejasi ishlab chiqildi. Maktabgacha ta'lіmning vazifasi bolalarni xalqning boy milliy, madaniy-tarixiy merosi va ma'naviy axloqiy jihatdan tarbiyalash, bolalarda milliy vatanparvarlik hislarini шакллантирish, maktabgacha ўосдаги bolalarda bilim olish eтийојини, о'қишга интилиш moyilliklarini шакллантирib, ularni muntazam ravishda ta'lіm jarayoniga тайырлаш, bolalarning tafakkurini rivojlantirish, o'zining fikrini mustaqil va erkin ifodalash malakalarini шакллантирish, bolalarning jismoniy varuhiy sog'ligini ta'minlashdan iborat. Maktabgacha ta'lіm va tarbiyabolalarni o'qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma'naviy axloqiy, yetuk, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdak bolalarni umumiyoq o'rta ta'limga тайырлашга qaratilgan ta'lіm turidir. Maktabgacha ta'lіm va tarbiya olti ўосдан yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni boshlang'ich ta'limga bir yillik majburiy тайырлашни ham nazarda tutadi. Ta'lіm va kasb-hunar dasturini ongli ravishda tanlash va keyinchalik puxta o'zlashtirish uchun ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, psixologik-pedagogik va boshqa tarzdagi sharoitlarni yaratishni, jamiyat, davlat va oila oldida o'z javobgarligini his etadigan tarbiyachilarni tarbiyalashni nazarda tutadi.<sup>4</sup>

Bolaning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash uchun maktabgacha ta'lіm muassasasida ota-onalar bilan hamkorlik shakllari muhim ahamiyatga egadir.<sup>5</sup>

<sup>3</sup>Prezidentimizning "Maktabgacha ta'lіm vazirligi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari tog'risida"даги farmoni. 2019- yil 30-sentyabr

<sup>4</sup>O'zbekiston Respublikasining "Ta'lіm to'g'risidagi qonuni " 2020-y

<sup>5</sup>Ilk qadam davlat o'quv dasturining 2-bobi 2.5 bandi



Yuqorida bayon qilingan dalillar otonalarning bola shaxsini shakllanishida maktabgacha ta'limning ijobjiy jihatlari haqidagi tasavvurlarinishakllantirish dolzARB masalalardan biri ekanligini ko'rsatadi.Ota-onalarning bola shaxsini shakllanishida maktabgacha ta'limning ijobjiy jihatlari haqidagi tasavvurlarini shakllantirish ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish metodikasini ishlab chiqish ,unga mos ishlanmalar ,yaratish va amaliyotda joriy qilish zarurligidir.

Ota-onalarning bola shaxsini shakllanishida maktabgacha ta'limning ijobjiy jihatlari haqidagi tasavvurlarini shakllantirish ta'lim tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish va amaliyotga joriy etish bugungi kunning dolzARB vazifalaridan hisoblanadi. Haqiqatdan ham,ta'lim islohatlari insonning muayyan darajada intellektual salohiyatining yuzaga chiqishiga ,uning jamiyatda o'z o'rnnini topishga katta yordam berdi. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablarining tamoillarida ham bola ta'limi va rivojlanishida kattalarning roli asosiy va muhim ekanligi belgilab qo'yilgan. Bundan ko'rinish turibdiki, bolaning har tomonlama sog'lom bo'lib rivojlanishida kattalarning ayniqsa ota-onsa va tarbiyachining hamkorligi juda muhimdir.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, ba'zi kamchiliklar qatorida maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilarining ota-onalar hamkorligi talablar darajasida emas. Bunga sabab maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim tarbiya berishda o'quv vositalari, shart - sharoitlarning yetarli emasligi bo'lsa, ikkinchidan, pedagoglarda ota-onalar bilan bo'ladigan faoliyatni tashkil

etishda bilimlarning yetishmasligidadir. "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 - yilgacha rivojlantirish konsepsiysi" ga binoan sohadagi muommolarni bartaraf etish va maktabgacha yoshdagi bolalarning maktab ta'limiga sifatli tayyorlash berish vazifalari ko'zda tutiladi. Shu sababli biz "Ota-onalarning bola shaxsini shakllanishida maktabgacha ta'limning ijobjiy jihatlarini shakllantirish" mavzusini tanladik. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish va ushbu muassasalarda bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishini jiddiy oshirish va foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash, pedagog va mutaxassislarning malaka darajasini yuksaltirish" 6kabi muhim vazifalar belgilangan. Bu esa, o'z navbatida, maktabgacha ta'lim tizimining integratsiyalashgan mazmuniga zamonaviy yondashuvlarni singdirish, bolalarning fikrlash faolligini ta'minlashning pedagogik-psixologik yo'nalishlarini aniqlash, maktabgacha ta'lim jarayonida bolalarning fikrlash faolligini rivojlanishning metodik imkoniyatlarini aniqlashtirish, bolalarning fikrlash faolligini rivojlanishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon modelini maktabgacha

6Sh.M. Mirziyoyevning "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. T.: -2016y. 29-dekabr www.lex.uzO'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707-son Qarori2016 yil 29 dekabr www.lex.uz



ta'lism tashkiloti va oilaning o'zaro hamkorligini ta'minlash hamda ustuvor printsiplar asosida ishlab chiqishni taqozo qiladi. Bugungi kunda ota-onalarning maktabgacha ta'lism tashkilotiga munosabati salbiyligicha qolmoqda.

Maktabgacha ta'lism tashkilotlarida bola shaxsini shakllantirish bugungi maktabgacha ta'lism tashkilotining eng dolzarb masalasidir. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib ota-onalarning bola shaxsini shakllanishida maktabgacha ta'limgning ijobjiy jihatlari haqidagi tasavvurlarini shakllantirish dolzarb masalalardan biri ekanligini ko'rsatadi. Muxtasar aytganda, maktabgacha ta'lism uzlusiz ta'limgning boshlang'ich qismi hisoblanadi. U bolaning sog'lom va rivojlangan shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlab, o'qishga bo'lgan ishtiyoqini uyg'otadi, tizimli o'qitishga tayyorlab boradi. Shunday ekan, bu tizim faoliyatini yanada kuchaytirish, ijtimoiy - falsafiy, psixologik, pedagogik va metodik manbalarni o'rganish, ota-onalarning bola shaxsini shakllanishida maktabgacha ta'limgning ijobjiy jihatlari haqidagi

tasavvurlarini shakllantirishda oila bilan hamkorlik faoliyatining yangi yo'nalishlarini belgilash, ota-onalarning bola shaxsini shakllanishida maktabgacha ta'limgning ijobjiy jihatlari haqidagi tasavvurlarini shakllantirishning samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish, bolalarni muktab ta'limga tayyorlashning zamonaviy usullarini o'rganish, ota-onalarning bola shaxsini shakllanishida maktabgacha ta'limgning ijobjiy jihatlari haqidagi tasavvurlarini shakllantirishning oila va muktabgacha ta'lism tashkilotlari hamkorligining samaradorlik darajasini aniqlash, tadqiqot natijalar asosida pedagogik tajribani amalga oshirish va natija asosida metodik ishlanma yaratish bugungi maktabgacha ta'lism tashkilotining dolzarb masalalaridan biridir. Shuning uchun bola shaxsi shakllanishida maktabgacha ta'lism tashkiloti to'g'risidagi ijobjiy jihatlarini shakllantirish muhim deb o'layman.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.O'zbekiston Respublikasining "Ta'lism to'g'risida"gi qonuni . 2020 y
- 2.F. Qodirova "Maktabgacha pedagogika". "Tafakkur" nashriyoti, T.:2019 y